

BUYUK BRITANIYANING TA'LIM ALMASHINUV DASTURLARI

Nasritdinova Aziza Xurshiddin qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro munosabatlar fakulteti 1-bosqich talabasi
nasritdinovaaziza7726@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buyuk Britaniya akademik almashinuv dasturlarining ahamiyati, talabalarning rivojlanishi uchun taqdim etayotgan imkoniyatlari yoritiladi. Buyuk Britaniya almashinuv dasturlarining mashhurlik sabablari o'rganiladi. Multikultural muhitning talabalarning dunyoqarashini keng shakllantirishdagi ahamiyati, taqdim etiladigan turli stipendiyalarning almashinuv dasturlarining ahamiyatini orttirishdagi roli ko'rib chiqiladi. Maqolada almashinuv dasturlarining asosiy turlari, ularning ta'lim sifati hamda til ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: almashinuv dasturlari, multicultural muhit, shaxsiy rivojlanish, akademik til, Chevening va Commonwealth dasturlari, xalqaro tajriba, amaliy ko'nikmalar, madaniy dasturlar, moliyaviy muammolar.

Annotation: This article highlights the significance of the United Kingdom's academic exchange programs and the opportunities they provide for student development. It explores the reasons behind the popularity of the UK's exchange programs. The importance of a multicultural environment in broadening students' world views and the role of various scholarships in enhancing the value of exchange programs are considered. The article also analyses the main types of exchange programs, their quality of education and their contribution to the development of language skills.

Keywords: exchange programs, multicultural environment, personal development, academic language, Chevening and Commonwealth programs, international experience, practical skills, cultural programs, financial difficulties.

Аннотация: В этой статье освещается значение академических программ обмена Великобритании и возможности, которые они предоставляют для развития студентов. Исследуются причины популярности программ обмена в Великобритании. Рассматривается важность мультикультурной среды для расширения мировоззрения студентов и роль различных стипендий в повышении значимости программ обмена. Также в статье анализируются основные виды программ обмена, их качество образования и вклад в развитие языковых навыков.

Ключевые слова: программы обмена, мультикультурная среда, личностное развитие, академический язык, программы Chevening и Commonwealth, международный опыт, практические навыки, культурные программы, финансовые проблемы.





Shaxsiy rivojlanish, yangi ko'nikma hamda tajribalar orttirish imkonini beruvchi almashinuv dasturlari hamisha o'z muhimlik darajasini saqlab qolmoqda. Almashinuv dasturlari bu talabalar, o'qituvchilar va mutaxassislarning o'z ta'lim muassasasi yoki ish joyi bilan hamkorlik qiluvchi xorijiy yoki mahalliy tashkilotda qisqa muddat davomida o'qish yoki ish faoliyatini olib borish jarayoni hisoblanadi. Buyuk Britaniya esa almashinuv dasturlarida ishtirok etish uchun ideal mamlakatlardan biri hisoblanadi. Buning sabablari sifatida yuqori ta'lim sifati, xalqaro tan olinish hamda ta'lim ingliz tilida olib borilishini, bundan tashqari turli stipendiyalar va moliyaviy qo'llab-quvvatlash ham nega aynan Buyuk Britaniya almashinuv dasturlari mashhur ekanligiga misol bo'la oladi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi, Buyuk Britaniya akademik almashinuv dasturlarining ahamiyatini yoritish hamda talabalarga beradigan imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Buyuk Britaniyada mavjud akademik almashinuv dasturlarida ishtirok etish uchun ma'lum talablar mavjud. Dastur odatda: bakalavr, magistr, PhD bosqichida o'qiyotgan talabalar, o'rta maktab o'quvchilari hamda ta'lim sohasi xodimlari-universitet o'qituvchilari, tadqiqotchilar va ilmiy xodimlarni o'z ichiga oladi. Yosh chegarasi sifatida 13 yoshdan 30 yoshgacha etib belgilangan. Nomzodlar o'zlarining asosiy ta'lim muassasalari tomonidan tavsiya etilishi, ingliz tilini o'rta darajada bilishi, akademik ko'rsatgichlari, GPA 3.0 va undan yuqori bo'lishi talab etiladi. Gumanitar va ijtimoiy fanlar, biznes va boshqaruv, texnika va IT, tibbiyot va sog'liqni saqlash, muhandislik, ta'lim, san'at va ijod sohalari Buyuk Britaniya almashinuv dasturlarining markaziy harakatlantiruvchi yo'nalishlari hisoblanadi. Ushbu almashinuv dasturlarining davomiyligi asosan 3 oydan 24 oygacha davom etishi mumkin. Almashinuv dasturlarida ishtirok etish istagini bildirgan nomzodlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida turli stipendiya asosidagi dasturlar faoliyati mavjud. Asosan Buyuk Britaniya universitetlari almashinuv dasturlarida ishtirok etayotgan izlanuvchan va munosib talabalarga stipendiyalar ajratadi. Buyuk Britaniya oliygohlarida magistr va PhD bosqichlarida ta'lim olish istagidagilar uchun Chevening va Commonwealth dasturlari mos hisoblanadi. Ushbu dasturlar orqali 1 yildan 3 yilgacha o'qish davri qoplanadi. 1960-yildan hozirgi kunga qadar 30 000 dan ortiq kishi Commonwealth stipendiyasini qo'lga kiritgan. Shu o'rinda, Buyuk Britaniyada mavjud qisqa muddatli va madaniy dasturlarni ham aytib o'tish darkor. Qisqa muddatli dasturlar bir necha hafta yoki bir semester davom etishi mumkin. Tanishlar orttirish, turli davlatlardan kelgan talabalar bilan fikr almashish orqali dunyoqarashni kengaytirish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish qisqa muddatli dasturlarning asosiy maqsadlari hisoblanadi. Madaniy dasturlarda esa, xalqaro tajribani o'rganishga, til va madaniyatga ko'proq urg'u beriladi.





Ta'lim bilan bog'liq har qanday almashinuv dasturlari faqat rivojlanish uchun xizmat qilganidek, Buyuk Britaniya akademik almashinuv dasturlari ham ko'plab afzalliklarga ega. Yuqori sifatli ta'lim tizimi, yuqori malakali professorlar bilan fikr almashish imkoniyati - xalqaro akademik tajriba orttirish imkoniyatini yaratadi. Darslarning to'liq ingliz tilida olib borilishi, akademik til ko'nikmalarini, mahalliy aholi bilan olib boriladigan suhbatlar esa kundalik tarzda tildan foydalanish jarayonini rivojlantiradi. Buyuk Britaniyada o'qish orqali ushbu mamlakatning madaniyati bilan yaqindan tanishish imkoni paydo bo'ladi. Xalqaro talabalar ham madaniy almashinuv jarayoniga bevosita hissa qo'shishadi. Xorij mamlakatida, o'zga madaniyat, til va insonlar orasida mustaqil hayot kechirish shaxsiy rivojlanishga zamin yaratadi.

CVda xalqaro tajriba mavjudligi esa ish beruvchilarning e'tiborini tortuvchi jihat hisoblanadi. Turli internship va stajirovkalar xalqaro tajribani yanada boyituvchi omillardir. Buyuk Britaniya almashinuv dasturlarida ishtirok etish ko'plab afzalliklar keltirishi bilan birgalikda ba'zi bir moslashuv muammolari kabi qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Madaniy xilma-xillik, akademik jihatdan yangi tizimga moslasha olish - xalqaro talabalar duch keladigan muammolardir. Oila va yaqinlardan uzoqda bo'lish, Britaniya madaniyatining ko'plab qirralarida tushunmovchiliklarga duch kelish, til bilan bog'liq muammolar talabalarining yangi hayotga moslashishida to'siq rolini o'ynaydi. Xorijiy davlatda o'qish yuqori mablag' talab etishini va har doim ham stipendiyalar moliyaviy holatda barqarorlikni ushlay olmasligini hisobga olsak - moliyaviy muammolar almashinuv dasturi nomzodlari, talabalar uchun navbatdagi to'siqdir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Buyuk Britaniyadagi almashinuv dasturlari talabalar uchun xalqaro akademik tajriba orttirish, kasbiy va shaxsiy rivojlanish imkonini berishda muhim hisoblanadi. Ushbu dasturlar orqali talabalar yetakchi universitetlarda tahsil olib, zamonaviy ta'lim metodlari, ilg'or ilmiy yondashuvlar hamda xalqaro ta'lim muhitini





bevosita o'rganish imkoniga ega bo'ladilar. Almashinuv dasturlari ingliz tilini amaliy muhitda rivojlantirish, turli madaniyat vakillari bilan muloqot qilish hamda global dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qisqa muddatli bo'lishiga qaramay, bunday dasturlar talabalarning mustaqilligi, moslashuvchanligi va yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Garchi almashinuv dasturlari ko'pincha to'liq stipendiyani qamrab olmasa-da, ular beradigan akademik va madaniy tajriba talabaning keyingi ta'limi va kasbiy faoliyatida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, Buyuk Britaniyadagi almashinuv dasturlari talabalarning xalqaro maydonda raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

1. <https://erasmus-plus.ec.europa.eu/opportunities/opportunities-for-organisations/learning-mobility-of-individuals/youth-exchanges-and-activities>
2. <https://cscuk.fcdo.gov.uk/about-us/scholarships/?nowprocket=1>
3. <https://fsukinternationalcollege.com/2024/11/the-benefits-of-studying-abroad-in-the-uk-for-international-students/>
4. <https://ukuni.net/articles/5-difficulties-international-students-uk>

